



**BUXORO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI



**2023- YIL
YANVAR**

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi aholining barcha qatlamlarini qamrab oladi va jamiyatda ro'y berayotgan deyarli barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir qiladi, bu esa ushbu masalaning dolzarbligi va ahamiyatini belgilaydi.

2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

21 867 birlik

65,6 %

Xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning ulushi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

108,3 %

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni **33 313** birlikni tashkil etdi. Xizmatlar sohasida **21 867** birlik korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ularning umumiy sonining **65,6 %** ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **108,3 %** ni tashkil etgan.

2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi (% da)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2023- yil 1-yanvar holatiga ko'ra xizmat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining (29 726 birlikni) 18 397 birligi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi. Ularning xizmatlar sohasiga oid faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidagi ulushi 84,1 % ni tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yirik tashkilotlarning ulushi 15,9 % ni (3 470 birlikni) tashkil etdi.



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog‘idir.


Xizmatlar iste‘molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o‘zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko‘maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi ma‘lum vaqt davomida iste‘molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo‘shgan holda) ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to‘laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda, xizmatlar bozor uchun mo‘ljallanib ishlab chiqarilgan hisoblanadi.



Buxoro viloyatining iqtisodiy holatini baholashda xizmatlar sohasining ko'lamini, tarkibi va rivojlanish darajasi alohida o'rin tutadi.



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 250,2** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilga (**111,9 %**) nisbatan o'sish sur'ati **105,2 %** ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar)

	Hajm, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati ¹⁾	1 250,2	100,0	105,2
Olot	42,8	3,4	100,1
Buxoro	66,8	5,3	100,5
Vobkent	59,0	4,7	85,3
G'ijduvon	160,2	12,8	100,6
Kogon	41,9	3,4	105,3
Qorako'l	52,2	4,2	100,2
Qorovulbozor	20,2	1,6	100,3
Peshku	60,6	4,8	107,0
Romitan	66,9	5,4	100,4
Jondor	67,1	5,4	100,8
Shofirkon	55,3	4,4	101,4
Buxoro sh.	514,2	41,1	113,9
Kogon sh.	43,0	3,5	100,7

¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2023- yilning yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **627,2** ming so'mga yetdi. 2022-yilga nisbatan o'sish sur'ati **103,6** % ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati



Xizmatlar hajmi (mln. so'mda)



2022- y.

2023- y.

2022- y.


2023- y.

Shahar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga xizmatlar	Hajmi, ming so'mda (2023 yil yanvar)	Hajmi, ming so'mda (2022 yil yanvar)
Buxoro viloyati	627,2	549,9
Olot	419,5	385,7
Buxoro	384,9	353,8
Vobkent	407,8	440,5
G'ijduvon	509,2	467,2
Kogon	511,7	450,0
Qorako'l	309,7	284,5
Qorovulbozor	1045,8	971,9
Peshku	474,2	409,6
Romitan	453,1	416,7
Jondor	371,3	340,0
Shofirkon	302,1	274,7
Buxoro sh.	1 794,6	1 450,8
Kogon sh.	682,4	627,5

Xizmatlar sohasida kichik biznes

Kichik biznes sektori iqtisodiyotning barqaror o'sishiga, yangi ish o'rinlarini yaratishga, daromadlarni oshirishga va aholi farovonligini ta'minlashga yordam beradi.

Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



2023-yil yanvar oyida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **726 180,2** mln. so'mga teng bo'lib, ishlab chiqarilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **58,1** % ni shu jumladan, **17,8** % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida kichik biznesning eng katta hajmi Buxoro shahrida qayd etildi – **179 364,9** mln. so'm.

Xizmatlar sohasida kichik biznesning ulushi
(2023- yil yanvar)



58,1

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar)

X
I
Z
M
A
T
L
A
R

S
O
H
A
S
I



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari eng katta ulushni egallaydi. 2023- yil yanvar oyida savdo xizmatlarining ulushi **27,1** % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlar (**25,4** %), transport (**19,5** %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**5,3** %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**4,8** %) yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmining o'sishi qayd etildi, ushbu xizmat turining ulushi **0,8** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'mda	
	2022- y. yanvar	2023- y. yanvar
Xizmatlar – jami	1 078,9	1 250,2
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	46,7	60,0
Moliyaviy xizmatlar	218,1	317,6
Transport xizmatlari	237,2	243,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	214,2	215,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	43,3	43,8
Savdo xizmatlari	335,0	338,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	23,6	26,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	38,1	66,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	20,4	22,8
Ijara xizmatlari	26,4	28,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	23,1	26,6
Shaxsiy xizmatlar	24,2	31,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	9,8	9,7
Boshqa xizmatlar	33,0	34,9

Transport xizmatlari




Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023-yil 1-fevral holatiga ko'ra, tashish va saqlash bilan bog'liq faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **2 288** birlikni yoki ularning umumiy sonining **6,9** % ini tashkil etdi. Ulardan **2 277** birlik (**99,5** %) kichik biznes subyektlari hisoblanadi.

2023- yilning yanvar oyida transport xizmatlari hajmi **243,3** mlrd. so'mni tashkil etib, jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmida transport xizmatlarning ulushi **19,5** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)





Transport xizmatlari (2023- yil yanvar)	Hajmi, mln. soʻmda	Ulushi, % da
Buxoro viloyati¹⁾	243 310,5	100,0
Olot	10 686,2	4,4
Buxoro	15 487,4	6,3
Vobkent	14 615,4	6,0
Gʻijduvon	42 135,5	17,3
Kogon	10 841,8	4,5
Qorakoʻl	11 173,0	4,6
Qorovulbozor	4 523,9	1,9
Peshku	12 899,4	5,3
Romitan	17 228,5	7,0
Jondor	16 318,3	6,7
Shofirkon	11 568,5	4,8
Buxoro sh.	61 800,8	25,4
Kogon sh.	14 031,8	5,8

¹⁾ *shahar va tumanlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda*


2023- yil fevral oyida Buxoro shahri (**25,4** %) va Gʻijduvon tumanida (**17,3** %) transport xizmatlari bo'yicha yuqori ulush qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlarning hajmi **99,5** mlrd. so'mga oshdi va **317,6** mlrd. so'mga yetdi. Jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **25,4** % ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **138,3** % ni tashkil etdi

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar)



Moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari (pul mablag'larini olish va qayta taqsimlash bo'yicha xizmatlar) ustunlik qiladi. 2023- yil yanvar oyida ularning ulushi **87,6** % ni tashkil etdi.


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.


2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **362** birlikka yetdi, shundan **343** tasi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

2023- yilning yanvar oyida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **60,0** mlrd. so'm darajasida qayd etildi va 2022- yilning yanvariga nisbatan o'sish sur'ati **122,8** % ni tashkil etdi.

O'sish sur'ati



Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)






Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar)	Hajm, mln. soʻmda	Ulushi, % da	Oʻsish surʼati, % da
Buxoro viloyati¹⁾	59 981,4	100,0	122,8
Olot	1 722,1	2,9	119,5
Buxoro	2 881,3	4,8	120,4
Vobkent	2 501,0	4,2	120,0
Gʻijduvon	5 232,1	8,7	120,1
Kogon	1 501,9	2,5	119,8
Qorakoʻl	2 747,4	4,5	120,1
Qorovulbozor	696,9	1,2	153,9
Peshku	2 176,1	3,6	118,5
Romitan	2 520,4	4,2	119,7
Jondor	3 242,0	5,4	119,1
Shofirkon	3 047,7	5,1	118,7
Buxoro sh.	30 518,0	50,9	125,4
Kogon sh.	1 194,5	2,0	117,6

¹⁾ *shahar va tumanlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda*

2023- yilning yanvar oyida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining eng katta hajmi Buxoro shahrida qayd etildi. Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan mazkur shaharda ushbu turdagi xizmatlar hajmi **7 256,2** mln. soʻmga oshib, **30 518,0** mlrd. soʻmni tashkil etgan.

**Aloqa va axborotlashtirish
xizmatlarining tarkibi**
(2023- yil yanvar)



- Axborot xizmatlari
- Boshqa xizmatlar
- Kompyuterda dasturlashtirish bo'yicha xizmatlar
- Telekommunikatsiya xizmatlari

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush telekommunikatsiya xizmatlariga to'g'ri keldi – **92,8 %**.

Taqqoslash uchun: 2022-yilda bu ko'rsatkich **92,1 %** ni tashkil etgan.

Telekommunikatsiya xizmatlari

Telekommunikatsiya xizmatlari – bu ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

2023- yilning yanvar oyida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi **60,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Ta'lim sohasidagi xizmatlar

Mazkur seksiya kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali davlat tomonidan beriladigan yoki xususiy turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.


Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'limni qo'llab-quvvatlash faoliyati va boshqalar kiradi.

Ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyatni amalga oshirishda ko'rsatilgan bozor xizmatlari, jumladan, masofaviy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish qiymati (kontrakt o'qitish shakli) aks ettiriladi.

O'sish sur'ati



Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



**Shahar va tumanlar kesimida
ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi**
(2023-yil yanvar)


	Hajm, mln. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati¹⁾	66 876,8	100,0	170,0
Olot	578,5	0,9	100,3
Buxoro	1 171,5	1,7	100,2
Vobkent	736,9	1,1	101,4
G'ijduvon	7 337,8	11,0	100,6
Kogon	1 365,1	2,0	113,8
Qorako'l	1 160,0	1,7	116,6
Qorovulbozor	116,9	0,2	105,7
Peshku	733,4	1,1	101,1
Romitan	1 051,5	1,6	102,8
Jondor	1 202,3	1,8	102,2
Shofirkon	1 232,3	1,8	100,6
Buxoro sh.	49 751,5	74,4	2,2 m.
Kogon sh.	439,1	0,7	100,0

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar


2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasida xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **821** birlikni tashkil etdi, shundan **741** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi - bu sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

O'sish sur'ati



Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar, mln. so'mda)

Buxoro viloyati	22 825,0		
Buxoro sh.	11 352,4	Romitan	721,7
G'ijduvon	2 296,0	Shofirkon	685,7
Buxoro	1 804,1	Vobkent	635,5
Qorako'l	1 168,0	Olot	595,4
Peshku	1 034,0	Kogon	567,9
Kogon sh.	999,4	Qorovulbozor	212,5
Jondor	752,4		


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **2 504** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **2 497** birlik kichik biznes subyektlaridir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)






Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar


Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Shahar va tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning o'sish sur'atlari (2023- yil yanvar)



2023- yilning yanvar oyida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **26,0** mlrd. so'mni qayd etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,1** % ni tashkil etdi. 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **101,0** % ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati



Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



2022- y.

2023- y.

2022- y.

2023- y.

Shahar va tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar, mln. so'mda)

Buxoro viloyati	25 975,1	Olot	1 221,5
Buxoro sh.	8 114,1	Kogon sh.	1 205,0
G'ijduvon	3 924,4	Shofirkon	1 091,0
Jondor	1 972,1	Kogon	1 057,9
Vobkent	1 685,2	Peshku	1 011,2
Qorako'l	1 596,1	Qorovulbozor	228,6
Buxoro	1 515,7		
Romitan	1 352,3		


¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ijara xizmatlari

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

O'sish sur'ati

Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



Shahar va tumanlar kesimida ijara xizmatlarining o'sish sur'atlari (% da)

Buxoro viloyati	101.0
Olot	100.5
Buxoro	100.4
Vobkent	100.5
G'ijduvon	103.7
Kogon	101.5
Qorako'l	100.5
Qorovulbozor	100.6
Peshku	101.3
Romitan	100.2
Jondor	100.3
Shofirkon	100.0
Buxoro sh.	100.1
Kogon sh.	100.3


■ 2023- y.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi – bu kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar) ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyafzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

2023- yilning yanvar oyida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **26,6** mlrd. so'mni qayd etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,1** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar, % da)




Shaxsiy xizmatlar

2022- yilga nisbatan shaxsiy xizmatlar hajmi 7,1 mlrd. so'mga oshib, 2023- yilning yanvar oyida 31,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 2,5 %ni tashkil etdi. 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati 101,8 % ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati




Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



Ko'rib chiqilayotgan davrda jami ko'rsatilgan shaxsiy xizmatlar hajmida sartaroshxona va go'zallik salonlari xizmatlarining ulushi **51,1** % ni tashkil etdi. Boshqa shaxsiy xizmatlar ulushi **30,3** % bo'ldi. Jismoniy komfortni ta'minlash bo'yicha xizmatlar hajmi **8,0** % ni hamda to'qimachilik va mo'ynali buyumlarni yuvish va kimyoviy tozalash bo'yicha xizmatlarining ulushi **7,7** % ga yetdi. O'z navbatida, dafn marosimlarini tashkil qilish xizmatlari va shu bilan bog'liq xizmatlarning ulushi esa **2,9** % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida shaxsiy xizmatlar hajmi

*(2023- yil yanvar,
mln. so'mda)*



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 65-223-79-41